

JINOYAT PROTSESSIDA GUVOH VA AYBLANUVCHI KO'RSATMALARINING ISHONCHLILIGINI BAHOLASHDA KOGNITIV-REPRESENTATSION PSIXOLOGIK MEXANIZMLAR

Saatbaeva Azada Bayrambaevna

**Qoraqalpoq qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,
yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi, O'zbekiston, Nukus shahri**
 tel:(94)286.81.06. e-mail: azadasaatbaeva708@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20604646>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat protsessida guvoh va ayblanuvchi ko'rsatmalarining ishonchliligini baholashda kognitiv-representatsion psixologik mexanizmlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ko'rsatmalar shakllanishi jarayonida idrok, xotira va axborotni qayta tiklash bosqichlarining individual psixologik xususiyatlari muhim rol o'ynashi asoslab berilgan. Shuningdek, emotsional holat, stress, vaqt omili va shaxsning motivatsion yo'nalishi guvoh hamda ayblanuvchi ko'rsatmalarining subyektivlashuviga va xatolik ehtimolining oshishiga olib kelishi ko'rsatilgan. Ilmiy tahlillar natijasida kognitiv buzilishlar, xotira deformatsiyasi va suggestiv ta'sirlar dalillar ishonchliligini pasaytirishi mumkinligi aniqlangan. Shu sababli jinoyat protsessida ko'rsatmalarni baholashda faqat protsessual-huquqiy mezonlar bilan cheklanmasdan, psixologik ekspertiza va kognitiv yondashuvlarni ham integratsiya qilish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda dalillarni yanada obyektiv baholash, sud xatolarining oldini olish va adolatli qaror qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, guvoh ko'rsatmalari, ayblanuvchi ko'rsatmalari, ishonchlilik, kognitiv psixologiya, representatsion tizim, xotira jarayonlari, emotsional holat, psixologik ekspertiza, dalillarni baholash.

ОЦЕНКА ДОСТОВЕРНОСТИ ПОКАЗАНИЙ СВИДЕТЕЛЯ И ОБВИНЯЕМОГО В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ НА ОСНОВЕ КОГНИТИВНО- РЕПРЕЗЕНТАТИВНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ

Аннотация. В настоящей статье с научной точки зрения анализируются когнитивно-репрезентативные психологические механизмы оценки достоверности показаний свидетеля и обвиняемого в уголовном процессе. В исследовании обосновывается, что в процессе формирования показаний важную роль играют индивидуально-психологические особенности на этапах восприятия, памяти и воспроизведения информации. Также показано, что эмоциональное состояние, стресс, фактор времени и мотивационная направленность личности ведут к субъективизации показаний свидетеля и обвиняемого и повышают вероятность ошибок. В результате научного анализа установлено, что когнитивные искажения, деформации памяти и suggestивные воздействия могут снижать достоверность доказательств. В связи с этим обосновывается необходимость при оценке показаний в уголовном процессе не ограничиваться лишь процессуально-правовыми критериями, а интегрировать также психологическую экспертизу и когнитивные подходы. Результаты исследования служат более объективной оценке доказательств при рассмотрении уголовных дел, предотвращению судебных ошибок и повышению эффективности принятия справедливого решения.

Ключевые слова: уголовный процесс, показания свидетеля, показания обвиняемого, достоверность, когнитивная психология, репрезентативная система, процессы памяти, эмоциональное состояние, психологическая экспертиза, оценка доказательств.

ASSESSMENT OF THE RELIABILITY OF WITNESS AND DEFENDANT TESTIMONIES IN CRIMINAL PROCEEDINGS BASED ON COGNITIVE-REPRESENTATIONAL PSYCHOLOGICAL MECHANISMS

Abstract. This article provides a scientific analysis of the cognitive-representational psychological mechanisms for assessing the credibility of witness and defendant testimony in criminal proceedings. The study substantiates that individual psychological characteristics play a crucial role in the formation of testimony at the stages of perception, memory, and information recall. It is also shown that a person's emotional state, stress, the time factor, and motivational orientation lead to the subjectivization of witness and defendant testimony and increase the likelihood of errors. The scientific analysis establishes that cognitive biases, memory distortions, and suggestive influences can undermine the reliability of evidence. In this regard, the necessity of integrating psychological expertise and cognitive approaches when evaluating testimony in criminal proceedings is substantiated, rather than being limited solely to procedural and legal criteria. The research findings contribute to a more objective evaluation of evidence in criminal cases, the prevention of miscarriages of justice, and the enhancement of fair and effective decision-making.

Keywords: criminal proceedings, witness testimony, defendant testimony, credibility, cognitive psychology, representational system, memory processes, emotional state, psychological expertise, evaluation of evidence.

Kirish. (Introduction) Shaxsning representativ tizimi deganda – insonning tashqi olamdan ma'lumotni idrok etishi, uni miyada qayta ishlashi va bayon etish uslubi tushuniladi. Ma'lumki, odam tashqi olamdagi ma'lumotni beshta sezgi organlari – ko'rish, eshitish, tana sezgisi (tuyish), ta'm va hid bilish orqali qabul qiladi. Sanab o'tilganlar ichida birinchi uchtasi asosiy ma'lumot yetkazuvchi sezgi turlari bo'lib, ularni ba'zan uch asosiy representativ tizim ham deb ataladi. Bunday talqinda ko'rish-vizual, eshitish-audial, tuyish-kinestetik representativ tizimlar nazarda tutiladi. Aniqlanishicha, har bir inson tashqi muhitdagi ma'lumotni qabul qilishda uchchala representativ tizimdan foydalanadi. Lekin, har bir odamning tabiiy moyilligi va yashash muhiti unda bironta representativ tizimni yetakchi qilib qo'yadi. Mana shu yetakchi representativ tizimning turliligi tashkilot miqyosidagi xodimlar tipologiyasi uchun yana bir asos bo'lib xizmat qiladi. Mehnat jamoasini boshqaruvchi rahbar uchun o'z qo'li ostidagi xodimda qaysi representativ tizim yetakchiligini bilish muhimdir. Bunday xususiyatni bilgan holda xodimning odatiy harakatlari sababini bilishga, uning xulqi natijalarini oldindan taxmin qila olishga va kezi kelganda biron masalani uning idrokiga mos ravishda tushuntira olishimizga imkon beradi. [1, 2, 3, 4, 5].

Metodlar. (Methods) O'zaro muloqot davomida o'zganing yetakchi representativ tizimini aniqlash quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Ko'z harakatlarini kuzatish. Amerikalik mashhur amaliyotchi psixologlar R. Bendler va Dj.Grinder tadqiqotlari orqali aniqlanishicha, odam uchta representativ tizimning birontasidan foydalanar ekan, bu jarayon uning ko'z harakatida ham ifodalanadi. [1, 2, 4].

Qarshimizdagi odam ko'z (gavhari) harakatining yo'nalishi uning ruhiy jarayoni muayyan representativ tizimga asoslangan holda o'tayotganligidan dalolat beradi. Masalan, ko'zning gorizontol holatda chapga, o'ngga hamda pastga-chapga yo'nalganligi audial tizimga murojaat etayotganligi belgisidir; ko'zning yuqoriga-chapga, yuqoriga-o'ngga hamda to'g'riga yo'nalishi vizual tizimga moyillik belgisi; ko'zning pastgao'ngga yo'nalganligi esa ayni paytda kintestetik tizim ustunligini ifodalaydi. [1, 2, 4].

2. Suhbatdoshning nutqini tahlil etish. Muloqot davomida suhbatdoshimiz qaysi representativ tizimga asoslanishini aniqlashning asosiy uslublaridan biri uning so'zlarini tahlil etishdir. Odatda, kundalik muloqot davomida odamlar gapning sintaktik tuzilmasi va so'zlarga beixtiyor murojaat etadilar. O'zga kimsaning gapidagi so'zlarga e'tibor bergan holda uning hayot tajribasi va shaxsiy xislatlarini aniqlab olish qiyin emas. Gapning ega, sifat va ravish qismlari ayni paytdagi representativ tizimni aks ettiradi. Aynan shunday so'zlar majmuasi u yoki bu representativ tizim yetakchi bo'lgan kimsalarda turlicha ko'rinishga ega. Quyida turli representativ tizimga moyil kishilar nutqida uchrovchi so'zlar qatori bayon etilgan:

- Vizual rerezentativ tizimli kimsaning nutqida – ko'rish, qarash, tasavvur etish, aniq, uzoqni ko'zlab, oldindan ko'rish, narsalarga e'tibor berish, ko'rsatmok, xayolan, kuzatish, qarashlar, o'xshash, tasvir, noaniq va shu kabi so'zlar ko'p uchraydi.

- Audial representativ tizimga mansub kishining nutqida – eshitmoq, tinglamoq, eshitilmoq, aks sado kabi, shovqin, tinch, tovushning turli ohanglari, pichirlab aytmoq, tadaffuz etmoq, aniq eshitmoq kabi so'zlar tez-tez uchraydi.

- Kinestetik uchun esa – sezmoq, his etmoq, sinmoq, tutib olmoq, (fikrni) ilg'ab olmoq, sovuq, issiq, qattiq, urinmoq, qiyin, bosim, bosmoq, ko'z yugurtirib chiqish, sezgir, tegizmoq, tiyib turish yoki tura olmaslik va shu kabi so'zlar ko'p uchraydi. [1, 2, 4].

3. Shaxsiy hisobotlar. Inson o'zini qaysi representativ tizimga mansub deb hisoblashi.

Turli representativ tizimlar yetakchi bo'lgan kimsalar muloqotida ba'zi bir qiyinchiliklar uchrashi mumkin. Masalan, vizual rerezentativ tizimga asoslanib bayon etilayotgan axborotni kinestetik odam axborot yetishmovchiligi sifatida qabul qilishi mumkin.

Natijalar. (Results) Ikki representativ tizimga mansub kimsalar muloqotidagi ziddiyatni kuzatar ekanmiz, xizmat yuzasidan bo'lgan vaziyat xodim va rahbar munosabatlarida quyidagi muammoni tug'dirishi mumkin – rahbar-vizual biron masalani xodim-audialga tushuntirar ekan, rahbar xodimning tinglayotganini diqqat bilan kuzatadi va xodim bir tomonga o'girilib quloq tutib turganini ko'rib bu holatni e'tiborsiz ravishda tinglash deb talqin etishi mumkin. Aslida esa audial uchun aynan shunday tana holati ma'lumotni tinglash uchun qulaydir. Turli representativ tizimga mansub bir oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar hatto mojarolarga ham olib keladi. Ota farzandini koyir ekan, farzand kuchli hislar og'ushida bo'ladi va yerga qarab turadi (haqiqiy kinestetik holati). Farzandining harakatlarini kuzatib turgan va vizual representativ tizim ustunlik qilayotgan ota esa farzandining e'tiborini suhbatga yo'naltirish maqsadida uni koyiy boshlaydi: «Men senga gapirayapman, sen esa nima haqida o'ylayapsan? Qani, ko'zimga qarachi.». Ayni paytda ota uchun farzandining tushunganligi alomati uning ota tomonga nigoh tashlashi bo'lib hisoblanadi. Agar shunday holat yuz bermasa, demak, ota farzandining e'tibori boshqa narsalarga yo'nalgan, deb yo'yadi.

Turli rerezentativ tizimga mansub kishilar, masalan rahbar va xodim suhbatida qo'llanuvchi so'zlar ham orada ma'lum ziddiyatni yuzaga keltiradi.

Xodim kaysi representativ tizim orqali ma'lumotni qabul qilishi, yodda saqlashi va ongida qayta ishlashi xususiyatlarini bilish beriladigan topshiriqni unga yanada moslashtirib bayon etish imkonini beradi. Vizual xodimga masalani tushuntirish davomida uning tasavvuriga asoslanish, tasvirlash va chizmadan foydalangan ma'qul. Audial xodimga esa uning idrok xususiyatiga mos so'zlarni tanlash va ma'lumotning mantiqiy tomoniga e'tibor bergan holda bayon etish kerak. Kinestetik representativ tizim yetakchi bo'lgan xodimga esa ma'lumotda hissiyot va tuyg'uni ifodalovchi tushunchalar, vazifaning tarkibiy bo'laklariga muvofiq paydo bo'luvchi turli sezgi hislari mujassamlashgan bo'lgani ma'qul. Masalan, «... eshikdan ichkariga kirganingizda qarshingizda katta harflar bilan yozib qo'yilgan...». Ushbu qisqa matndagi tagi chizilgan so'zlar aynan kinestetiklarga xos kalit so'zlar bo'lib hisoblanadi. Yetakchi rerezentativ tizimlari turlicha bo'lgan ikki xodimning telefondagi suhbatini quyidagicha o'tishi mumkin: «Audial: - Meni diqqat bilan eshit, muhim topshiriq bor, yaxshilab tushunib ol. [1 ,2, 4]».

Vizual: - Bunday muhim masalani telefon orqali hal qilib bo'lmaydi, kel ko'rishib gaplashib olaylik».

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, odatda audial tipiga mansub kimsalar telefon orqali ishlarni hal etishni ma'qul ko'rishadi. Telefonning ishlamay qolishi ular uchun ish kunining samarasiz o'tishi belgisidir. Vizual kimsa bitta chiroq yonib turgan joyda ikkinchisini izlaydi va hamma narsa ko'z ostida bo'lishini xohlaydi. «Ming bor eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzal» maqoli vizuallarning hayot tamoyilidir. Kinestetik uchun esa xonadagi jihozlarning qulay joylashganligi, ayniqsa o'tiradigan stul va suyanadigan stolining qulayligi katta ahamiyatga ega.

Xodimlarning yetakchi representativ tizimga mansubligini bilish ular o'rtasidagi ba'zi tushunmovchiliklar, muqarrar bulgan ziddiyatlarni oldini olish imkonini beradi. [1 ,2, 4]».

Tashkilot miqyosida xodimlarni klassifikatsiyalashga oid yana bir yondoshuv mashhur psixolog K. Yung tomonidan yaratilgan psixotiplar haqidagi ta'limot bo'lib, bunga muvofiq inson xarakterining ayrim xislatlari tug'ma asosga ega. Masalan, ulardan biri inson o'ziga kuch-quvvat olishda qayerga yo'nalganligi bilan bog'liq holatdir. Kimdir shu quvvatni tashqi muhitdan olsa, kimdir o'z ichki dunyosiga murojaat etadi. Tashqi muhitga yo'nalgan kimsalar ekstravert deb ataladi, e'tibori o'z ichki dunyosiga qaratilgan shaxsga esa introvert iborasi qo'llanadi. Ushbu ikki tipning batafsil tavsifi quyidagicha:

Ekstravert – o'zгалar bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoji katta va bu orqali o'ziga g'ayrat oladi, tanho qolish uni quvvatsizlikka olib keladi; avval gapirib, keyin esa o'ylaydi; faol va muloqotga kirishuvchan; atrofmuhitdagi ko'p narsalarni bilishga intiladi. [1 ,2, 4]».

Introvert – yakka, tanho qolganda o'zini yaxshi his etadi, fikr va o'ylarini boshqalar bilan o'rtoqlashmaydi, kuchli muhokama jarayoni ularni tez toliqtiradi, gapirishdan ko'ra tinglashni yaxshi ko'radi, suhbatdan so'ng iklari va hissiyotlarini jamlab va tartiblab olish uchun tanho qolishni ma'qul ko'radi.

K. Yungning tipologiyalar haqidagi ta'limoti o'zining uzoq davomiga ega va yuqorida ta'kidlanganlarga («ekstravert va introvert»)qo'shimcha ravishda «sezgir va intuitiv», «fikrlovchi va his etuvchi», «baholovchi va idrok etuvchi» kabi tiplar ham qayd etiladi. Keyinchalik bu uslub yanada takomillashib Mayers-Brigs uslubida tipologiyalash degan nomga ega bo'ldi. Yung tipologiyasidagi to'rt ko'rsatkichga ko'ra toifalash shunchalik ahamiyatliki, hatto AQSHning «Ford» avtomobil kompaniyasidagi mehnat jamoalari tarkibi aynan shu uslubda bir-biriga muvofiq keluvchi xodimlardan tashkil etilganligi ma'lum. [1 ,2, 4]».

Rossiyalik psixolog Samoukina taklif etadigan tipologiyaga binoan xodimlarni o'z ichiga yo'nalgan – "ichki" hamda tashqi muhitga yo'nalgan - "tashqi" shaxslarga toifalash mumkin. Bunday ta'rifga binoan "Ichki" kimsalar bajarayotgan mehnatning mazmuniga katta e'tibor berishadi va hissiy qoniqishni ustuvor deb hisoblashadi. Ular u yoki bu mehnat turi, vazifani tanlashda uning natijasi xamkasabalari oldida obro'-'tibor qozonishga yordam berishiga e'tibor qaratishadi. O'z imkoniyatini namoyon etish va qobiliyatlarni rivojlantirish ular uchun yetakchi motivatsiya omili bo'lib hisoblanadi. Ular maoshni yetakchi o'ringa qo'ymaydilar, agar katta pul evaziga zerikarli ishni bajarish lozim bo'lsa, ular bundan voz kechishlari tabiiy hol. Bunday xodimlar uchun kam maosh to'lansa ham, ularning qobiliyati va g'oyasini amalga oshirish muhim hisoblanadi.

"Tashqi" xodimlar – ular uchun bajarilayotgan mehnat hayotda muvaffaqiyatga erishganlik belgisi ekanligi, jamiyatda yuqori nufuzga egaligi juda muhimdir. Ular maoshni qadrlaydilar. Mansabda o'sish, rahbariyat tomonidan rag'batlantirish va maqtoov bunday xodimlar uchun katta ahamiyatga ega. Ular muvaffaqiyat timsollarini egallashni xohlaydilar – yaxshi kabinet, zamonaviy avtomobil, chiroyli kiyim va shu kabilar. [1, 2, 4].

Yuqorida ta'kidlangan ikki toifadan tashqari "aralash" tipga mansub xodimlar xam eslatib o'tiladi. Ular uchun ikkala omil ham ahamiyatga ega. Lekin, bunday xodim uchun mehnat mazmuni yetakchi bo'lib hisoblanadi.

Muhokama. (Discussion) Tashkilot hayoti doimo rejalangan tarzda kechmaydi. Xom ashyo tanqisligi, vaqt va imkoniyatlarni taqsimlashdagi qiyinchiliklar va boshqa bir qancha omillar ta'sirida tashkilotda zo'riqish muhiti yuzaga kelishi mumkin. Bunday muhitning xodimlar faoliyatiga ta'sirini tahlil etish maqsadida "tazyiq ko'rsatuvchi" omillar degan iborani qabul qilishimiz mumkin. Tazyiq ko'rsatuvchi omillar qatoriga shaxsning ichki psixologik muammolari, xodimni o'rab turgan shart-sharoitning qoniqarsiz ahvolda ekanligi, jamoadagi shaxslararo munosabatlarning tajangligi, mehnatni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan muammolar hamda xodimning oilasidagi qiyinchiliklar kirishi mumkin. Jinoyat protsessida guvoh va ayblanuvchi ko'rsatmalarining ishonchligi ularning kognitiv-representatsion jarayonlariga bevosita bog'liq. Guvoh voqeani idrok etish, xotirada saqlash va qayta tiklash jarayonida emotsional holat, vaqt o'tishi va tashqi ta'sirlar sababli xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Ayblanuvchida esa o'zini himoya qilish motivi va psixologik bosim ko'rsatmalarni subyektivlashtiradi. Shu sababli ko'rsatmalarni faqat yuridik mezonlar asosida emas, balki psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda baholash lozim. Bu yondashuv dalillar ishonchligini oshiradi va tergov jarayonida xatolarni kamaytiradi. Bu omillar o'zaro bog'liq va xodimning bir sohadagi qoniqarsiz holati boshqa jabhalarda ham shunday natijani yuzaga keltirish ehtimoli baland.

Xulosa. (Conclusion) Jinoyat protsessida guvoh va ayblanuvchi ko'rsatmalarining ishonchligini baholashda kognitiv-representatsion psixologik mexanizmlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ular shaxsning voqeani idrok etishi, xotirada saqlashi va qayta tiklash jarayonlaridagi individual xususiyatlarni ifodalaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'rsatmalarning to'g'riligi ko'pincha emotsional holat, stress, vaqt omili hamda motivatsion ta'sirlar bilan o'zgaradi. Shu bois jinoyat protsessida dalillarni baholashda faqat huquqiy mezonlarga tayanish yetarli emas, balki psixologik tahlilni ham integratsiya qilish zarur. Mazkur yondashuv ko'rsatmalar ishonchligini oshirish, xatoliklarning oldini olish va adolatli qaror qabul qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Wells, G. L., & Olson, E. A. (2003). Eyewitness testimony. *Annual Review of Psychology*, 54, 277–295. <https://doi.org/10.1146/annurev.psych.54.101601.145028>
2. Omonov, Q. A. (2020). *Jinoyat protsessida dalillar va ularni baholash muammolari*. Toshkent: TDYU nashriyoti.
3. Muxtorov, S. S. (2021). *Yuridik psixologiya: nazariya va amaliyot*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasi. (2023). *Jinoyat-protsessual kodeksi*. <https://lex.uz/docs/-111460>
5. O'zbekiston Respublikasi. (2021). *Sud ekspertizasi to'g'risida Qonun*. <https://lex.uz/docs/-186050>